СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИНСТИТУЦИОНАЛЬНОЙ СРЕДЫ ДЛЯ РАЗВИТИЯ МАЛОГО БИЗНЕСА И ЧАСТНОГО ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА В УЗБЕКИСТАНЕ	1031
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
THE ADDITIONALITY GAP: EVALUATING THE SYNERGY BETWEEN GREEN FINANCE AND MACROECONOMIC STABILITY IN EMERGING ECONOMIES	1036
Ataxanov Umidbek Olimovich	



AHOLINI IJTIMOIIY HIMOYA QILISH TIZIMIDA SUN'IIY INTELLEKT: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA JORIY ETISH IMKONIYATLARI VA XIZMATLAR SIFATINI OSHIRISH MASALALARI	1042
Xidirbayev Baxrom Baxtiyarovich	
OROL BO'YI MINTAQASIDA IQLIM O'ZGARISHINING IJTIMOIIY-IQTISODIIY OQIBATLARI VA ZAIF AHOLI QATLAMLARIGA TA'SIRI	1047
Madenova Elmira Nzamatdinovna	
УЛУЧШЕНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ РИСКАМИ ЧЕРЕЗ ЦИФРОВИЗАЦИЮ В ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ: СИСТЕМАТИЧЕСКИЙ ОБЗОР	1052
Эргашев Мухиббек Аслам угли	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA KIMYO SANOATI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH.....	1057
Xaydarova Kamola Axinjanovna, Umaraliyev Asliddin Faxriddin o'g'li	
BARQAROR IQTISODIIY O'SISHNI TA'MINLASHDA "YASHIL" LIZINGNI JORIY ETISH IMKONIYATLARI	1062
Latipova Shaxnoza Maxmudovna	
ПРЕФЕРЕНЦИИ И РИСКИ УЗБЕКИСТАНА ОТ ИНИЦИАТИВЫ «ОДИН ПОЯС, ОДИН ПУТЬ»	1067
Wang Jianhong, Наров Улугбек Ирискулович	
DAVLATNING IQTISODIIY SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.....	1071
Karimov Ulug'bek Mirzajon o'g'li	
TA'LIM TIZIMIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA JARAYONLARI	1075
Quralov Nurxissa Iles o'g'li	
TURIZM SOHASIDA TRANSPORT XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIIY-IQTISODIIY MEKANIZMI.....	1082
Haydarov Jasur Baxodir o'g'li	
O'ZBEKISTONDA AUDITORLIK FAOLIYATINING ISTIQBOLLARI	1087
Mamatov Xabibulla Mamatovich	
O'ZBEKISTON ZIYORAT TURIZMI BRENDINI SHAKLLANTIRISHDA MUQADDAS QADAMJOLARNING MARKETING SALOHIIYATI	1091
Turayev Ziyadulla Norsoatovich	
ASOSIIY KAPITALGA YO'NALTIRILGAN INVESTISIYALARNI MOLIIYALASHTIRISH MANBALARINI TAKOMILLASHTIRISH	1095
Xoshimov Sobir Murtazayevich	
KREATIV IQTISODIYOTNING TARKIBI, TASNIFI VA RIVOJLANTIRISH OMILLARI.....	1103
Daminova Madinaxon Bahromjon qizi	
TURIZM TURLARINI DIVERSIFIKATSIYALASHDA ZAMONAVIIY TENDENSIYALAR VA INNOVATSION YONDASHUVLAR.....	1110
Saidova Dilfuza Abdufattohovna	
O'ZBEKISTONDA OBLIGATSIYALAR BOZORINING RIVOJLANISHI VA UNING IQTISODIIY AHAMIIYATI	1117
Muxammedova Zarina Murodovna	
SUG'ORILADIGAN YERLARNING EKOLOGIK HOLATINI YAXSHILASHNING IQTISODIIY MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISHDA JAHON TAJRIBALARI	1121
Sultonov Xudoyshekur G'ayratovich	
IQTISODIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISH BO'YICHA ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	1126
Xaydarov Ravshan Xikmatullaevich	
ВЛИЯНИЕ ТОРГОВОГО БАЛАНСА УЗБЕКИСТАНА И КИТАЯ НА РАЗЛИЧНЫЕ ОТРАСЛИ.....	1131
He Xiaogu, Уркинбаев Т. А.	
РОЛЬ ПРЯМЫХ ИНОСТРАННЫХ ИНВЕСТИЦИЙ В РЕФОРМИРОВАНИИ ЭКОНОМИК СТРАН ПЕРЕХОДНОГО ТИПА	1135
Qian Xuanhong, Наров Улугбек Ирискулович	
"YASHIRIN IQTISODIYOT"NING ULUSHINI QISQARTIRISHDA AUDITNING O'RNI	1140
Qo'shmatov Otaxon Qurbonaliyevich	



TRANSFERRING PORT MULTIMODAL COORDINATION CAPABILITIES ACROSS INSTITUTIONAL CONTEXTS: LOCALIZATION MECHANISMS IN THE CHINA-UZBEKISTAN LOGISTICS CORRIDOR.....	1146
Mu Zhendi	
TURIZM XIZMATLARINING SIFATINI OSHIRISH ORQALI MEHMONDO'STLIK INDUSTRIYASINI RIVOJLANTIRISH.....	1156
Z.T. Bakayev	
ESG-ПРИНЦИПЫ В СТРОИТЕЛЬСТВЕ УЗБЕКИСТАНА: ОТ ПЕРВЫХ ИНИЦИАТИВ К ФОРМИРОВАНИЮ УСТОЙЧИВОЙ МОДЕЛИ ОТРАСЛИ.....	1161
Аблаева Валентина Борисовна	
KAMBAG'ALLIK DARAJASINI PASAYTIRISHDA ISHLAB CHIQRISH FAOLIYATINI KENGAYTIRISHNING O'RNI.....	1169
Saparov Murod Irgashovich	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: EKONOMETRIK TAHLIL.....	1173
Qo'ziboyev Behzod Hamidovich	
"2025-YIL YAKUNI BO'YICHA O'ZBEKISTONDA INFLYATSIYA OMILLARI: IMF VA MARKAZIY BANK MA'LUMOTLARI TAHLILI".....	1177
Ergashev E'zozbek Umirzakovich, Vaxabov A.V.	
KORXONANING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQOBAT RAZVEDKASIDAN FOYDALANISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI.....	1183
Tursunxo'jayev Sardor Jamoliddin o'g'li	
O'ZBEKISTON HUDUDLARIDA AHOLI MIGRATSIYASI TAHLILI (2010-2024 YILLAR).....	1188
Hojiyev Tal'at Toshpo'latovich	
ВОПРОСЫ ПРИМЕНЕНИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА В ОТРАСЛЯХ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	1192
Аман Тургунович Кенжабаев, Бахтияр Бадриддинович Садриддинов	
SANOAT KORXONALARIDA YASHIL IQTISODIY FAOLIYATNI BAHOLASH USULLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH.....	1200
Zuxurova Nargiza Abdusattarovna	
O'ZBEKISTONDA YASHIL IPOTEKANI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH AMALIYOTI.....	1204
Berdinazarov Zafar Ulashovich, Xayitov Bobirbek Ergashevich	
XALQARO STANDARTLARGA MUVOFIQ IKKIYOQLAMA SOLIQQA TORTISHNI BARTARAF ETISH MEKANIZMLARINING TAHLILI.....	1212
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich	
SURXONDARYO VILOYATIDA YASHIL IQTISODIYOTNING HOZIRGI HOLATI VA YASHIL TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH ISTIQBOLLARI.....	1221
Sharofitdinov Shaxzod Damin o'g'li	
TOSHKENT SHAHRIDA EKOLOGIK HOLAT YOMONLASHUVINING TASHQI INVESTITSIYALARGA TA'SIRI.....	1228
Poyonov Jamshid	
RAQAMLI TURIZM PLATFORMALARIDA KONTENT TAHLILI HAMDA SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI.....	1232
Janzakov Bekzot Kulmamat o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA'LIM SOHASIDA INVESTITSION RISKLARNI BAHOLASH TENDENSIYALARI.....	1240
Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich	



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA OLIY TA’LIM SOHASIDA INVESTITSION RISKLARNI BAHOLASH TENDENSIYALARI

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Iqtisodiyot va menejment” kafedrası, katta o‘qituvchisi PhD

Annotatsiya. Mamlakatimizda oliy ta’lim tizimini rivojlantirish va uning investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Tadqiqotda oliy ta’lim tizimi qamrovining kengayishi, davlat va nodavlat oliy ta’lim muassasalari faoliyatining rivojlanishi investitsiya muhitiga ta’siri nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Shuningdek, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish orqali oliy ta’lim tizimidagi investitsion risklarni baholash tendensiyalari yoritildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, risklarni samarali boshqarish va bosqichma-bosqich kamaytirish oliy ta’limning investitsion jozibadorligini oshirishda muhim omil sifatida asoslab berildi.

Kalit so‘zlar: oliy ta’lim investitsion jozibadorligi, investitsiya risklari, davlat-xususiy sheriklik, investitsion risklarni baholash.

Abstract. Large-scale reforms are being consistently implemented in the country to develop the higher education system and enhance its investment attractiveness. This study analyzes the impact of the expansion of higher education coverage and the development of both public and private higher education institutions on the investment environment. It also examines trends in assessing investment risks through the diversification of funding sources and the development of public-private partnerships. The findings demonstrate that effective risk management and gradual risk reduction are key factors in improving the investment attractiveness of the higher education system.

Key words: investment attractiveness of higher education, investment risks, public-private partnership, risk assessment.

Аннотация. В нашей стране последовательно реализуются масштабные реформы, направленные на развитие системы высшего образования и повышение её инвестиционной привлекательности. В исследовании проанализировано влияние расширения охвата высшего образования, развития государственных и негосударственных высших учебных заведений на инвестиционную среду в данной сфере. Кроме того, рассмотрены тенденции оценки инвестиционных рисков на основе диверсификации источников финансирования и развития государственно-частного партнёрства. Результаты исследования показывают, что эффективное управление и постепенное снижение рисков являются важным фактором повышения инвестиционной привлекательности системы высшего образования.

Ключевые слова: инвестиционная привлекательность высшего образования, инвестиционные риски, государственно-частное партнёрство, оценка инвестиционных рисков.

KIRISH

Hozirgi globallashuv jarayonlari sharoitida oliy ta’lim tizimi mamlakatlarning nafaqat ijtimoiy, balki iqtisodiy rivojlanishida ham muhim omillardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Xususan, inson kapitalini shakllantirish, innovatsion iqtisodiyot uchun malakali kadrlar tayyorlash hamda ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish



jarayonlari oliy ta'lim tizimining moliyaviy barqaror va samarali faoliyat yuritishini taqozo etadi. Shu sababli ko'plab davlatlarda, jumladan O'zbekiston Respublikasida ham oliy ta'lim sohasini modernizatsiya qilish, uni xalqaro standartlarga mos ravishda rivojlantirish hamda investitsion jozibadorligini oshirish ustuvor vazifalardan biri sifatida qaralmoqda.

Shavkat Mirziyoyev o'z nutqida: "Biz uchun investitsiya faqatgina moliyaviy manba emas, balki texnologiya, bilim, malakali kadrlar va xalqaro ishlab chiqarish zanjirlariga integratsiyalashuv imkoniyatidir", deya ta'kidlagan¹. Mazkur yondashuvdan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimiga yo'naltirilayotgan investitsiyalar nafaqat moddiy-texnik bazani mustahkamlash, balki ilg'or bilim va texnologiyalarni transfer qilish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini kengaytirish hamda yuqori malakali, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonini jadallashtirishga xizmat qilmoqda.

So'nggi yillarda Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar izchil amalga oshirilmoqda. Oliy ta'lim muassasalari sonining ortishi, xorijiy universitetlar filiallarining tashkil etilishi, nodavlat oliy ta'lim muassasalari faoliyatining kengayishi hamda ta'lim qamrovining sezilarli darajada oshishi ushbu sohada investitsion muhitning jadal rivojlanayotganidan dalolat beradi. Bu esa oliy ta'lim xizmatlari bozorida yangi iqtisodiy munosabatlarning shakllanishiga va investitsion faollikning ortishiga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, oliy ta'lim tizimining investitsion rivojlanishi bilan bir qatorda investitsion risklarni baholash masalasi ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Oliy ta'lim sohasiga yo'naltirilayotgan investitsiyalar uzoq muddatli xususiyatga ega bo'lib, ular institutsional, moliyaviy, demografik hamda bozor omillariga bog'liq turli risklar bilan tavsiflanadi. Shu bois oliy ta'lim investitsion bozorida risklarni tahlil qilish, ularning shakllanish omillari va tendensiyalarini aniqlash investitsiya samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim investitsion bozorining shakllanishi investitsiyalarni jalb qilish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish bilan uzviy bog'liqdir. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim sohasida investitsion risklarni baholashning zamonaviy usullarini qo'llash, investitsion jozibadorlikni oshirish omillarini aniqlash hamda investitsiya faoliyatini samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi respublika oliy ta'lim investitsion bozorida investitsion risklarni baholash tendensiyalarini tahlil qilish, ularning shakllanish omillarini aniqlash hamda oliy ta'lim muassasalarining investitsion jozibadorligini oshirishga qaratilgan ilmiy xulosalar va takliflar ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oliy ta'lim tizimining iqtisodiy rivojlanishdagi o'rni hamda unga yo'naltirilgan investitsiyalarning samaradorligi iqtisodiyot va moliya bo'yicha adabiyotlarda keng tadqiq etilgan bo'lib, ayniqsa, inson kapitali nazariyasi oliy ta'limga investitsiyalarni iqtisodiy o'sishning muhim omili sifatida talqin qiladi. Mazkur nazariyaning asoschilaridan biri hisoblangan G. Bekkerga ko'ra ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar inson kapitalini shakllantirish orqali individual daromadlar va makroiqtisodiy samaradorlikni oshirishini ta'kidlaydi². Shuningdek, Germaniyalik olim T. Shultz fikriga ko'ra ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar iqtisodiy rivojlanishning muhim tarkibiy elementi va asosi deb ta'kidlagan³.

Bundan tashqari, oliy ta'limni moliyalashtirish va investitsion rivojlanish masalalari ko'plab xalqaro tadqiqotlarda ham o'rganilgan. P. Altbax va hamkasblari fikriga ko'ra oliy ta'lim tizimining global rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish, universitetlar faoliyatining kengayishi investitsiyalar hajmining oshishi bilan uzviy bog'liqligini asoslagan⁴. Ularning fikriga ko'ra, globallashuv iqtisodiyotida, oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish uchun moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish zarur hisoblanadi.

Oliy ta'lim tizimini moliyalashtirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari D. Jonston ko'ra, oliy ta'limni moliyalashtirishda davlat va xususiy sektor o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish investitsiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi⁵. Shu bilan birga, N. Barning ta'kidlashicha, oliy ta'limni moliyalashtirish tizimida iqtisodiy samaradorlikni ta'minlash uchun moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish va bozor mexanizmlarini keng joriy etish zarur hisoblanadi⁶. Bunda, G. Psaxaropulos va H. Patrion tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar ta'limga yo'naltirilgan investitsiyalar yuqori iqtisodiy va ijtimoiy foyda (qaytinga)

1 Mirziyoyev Sh.M. IV Toshkent xalqaro investitsiya forumining yalpi majlisidagi nutqi // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy chiqishi. [O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning to'rtinchi Toshkent xalqaro investitsiya forumidagi nutqi](#)

2 Becker, G. S. (1993). Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis with Special Reference to Education. University of Chicago Press.

3 Schultz, T. W. (1961). Investment in human capital. American Economic Review, 51(1), 1–17.

4 Altbach, P. G., Reisberg, L., & Rumbley, L. E. (2009). Trends in Global Higher Education: Tracking an Academic Revolution. UNESCO.

5 Johnstone, D. B. (2004). The economics and politics of cost sharing in higher education. Comparative Education Review, 48(4), 403–418.

6 Barr, N. (2012). Economics of the Welfare State. Oxford University Press.



ega ekanligini ko'rsatib, oliy ta'lim inson kapitalining sifatini oshirib, iqtisodiy o'sishni tezlashtiruvchi muhim omil hisoblanadi⁷.

So'nggi yillarda Scopus bazasida chop etilgan ilmiy tadqiqotlarda ham oliy ta'lim tizimining moliyaviy barqarorligi va investitsion jozibadorligi masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, B. Yongblud va H. Vossenshteyn fikriga ko'ra oliy ta'lim muassasalarining barqaror rivojlanishi uchun moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, xususiyl investitsiyalarni jalb etish hamda davlat-xususiyl sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi⁸.

Shuningdek, universitetlar o'rtasidagi raqobatning kuchayishi, bu yerda nafaqat mahalliy OTMLar o'rtasida balkim butun duyno oliy ta'lim muassasalarini ichiga olgan holda, ta'lim boshqaruvi, innovatsion faoliyati hamda moliyaviy barqarorligini ta'minlash masalalarini yanada dolzarb bo'lmoqda⁹. Oliy ta'lim tizimining global rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilgan tadqiqotlarda esa universitetlarning moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish¹⁰ hamda investitsiyalarni jalb qilish strategiyalari ularning raqobatbardoshligini oshirishda muhim omil ekanligi ta'kidlanadi¹¹.

Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligi va resurslardan foydalanish samaradorligini baholashda zamonaviy empirik usullar, jumladan samaradorlik tahlili va iqtisodiy modellar keng qo'llanilayotganligi¹² oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy samaradorligini kompleks baholash imkonini beradi¹³.

Tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimida investitsion risklarni keng qamrovli (kompleks) baholash, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlar sharoitida oliy ta'lim investitsion bozorining shakllanish tendensiyalarini tahlil qilish masalalari yetarli darajada o'rganilmagan. Xususan, O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimining investitsion jozibadorligini baholash hamda investitsion risklarni tizimli tahlil qilishga bag'ishlangan tadqiqotlar nisbatan kam uchraydi. Shu sababli mazkur tadqiqotda respublika oliy ta'lim investitsion bozorida investitsion risklarni baholash tendensiyalarini tahlil qilish muhim vazifa sifatida belgilangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotning metodologik asoslari nazariy va amaliy yondashuvlar uyg'unligiga tayanadi. Tadqiqot doirasida milliy qonunchilik hujjatlari, amaldagi me'yoriy qoidalar, ilmiy adabiyotlar hamda zamonaviy empirik tadqiqotlar tizimli ravishda tahlil qilindi. Olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar va amaliy takliflar konseptual umumlashtirish orqali shakllantirildi.

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez usullaridan keng foydalanildi. Shuningdek, iqtisodiy va statistik tahlil usullari, tizimli, institutsional hamda funksional yondashuvlar asosida qiyosiy, deduktiv va induktiv usullar qo'llanildi.

Mazkur metodologik yondashuvlar o'rganilayotgan muammoni kompleks baholash, uning asosiy omillarini aniqlash hamda ilmiy asoslangan, ishonchli natijalarga erishishni ta'minlaydi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimi so'nggi yillarda jadal rivojlanish bosqichini bosib o'tmoqda. Oliy ta'lim sohasining investitsion jozibadorligi ko'p jihatdan uning asosiy miqdoriy ko'rsatkichlari, xususan oliy ta'lim muassasalari soni, talabalar qamrovi, qabul kvotalari hamda bitiruvchilar soni kabi indikatorlar bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, respublika oliy ta'lim muassasalariga investitsiyalarni jalb etish manbalarini chuqur o'rganish uchun, avvalo, mavjud moliyalashtirish tizimini tahlil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, respublikadagi davlat oliy ta'lim muassasalarining faoliyati asosan davlat budjeti mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi (1-rasm).

7 Psacharopoulos, G., & Patrinos, H. A. (2018). Returns to investment in education. *Education Economics*, 26(5), 445–458.

8 Jongbloed, B., & Vossensteyn, H. (2021). University funding and performance: A conceptual framework. *Higher Education Policy*, 34(2), 321–340.


9 Hazelkorn, E. (2020). University rankings and the reshaping of higher education. *Higher Education*, 79(4), 643–659.

10 Salmi, J. (2020). Higher education and the global knowledge economy. *International Higher Education*, 102, 2–4.

11 Marginson, S. (2022). Global trends in higher education financing and participation. *Higher Education*, 84(5), 923–940.

12 Agasisti, T., & Johnes, G. (2021). Efficiency, costs, rankings and heterogeneity: The case of higher education. *Socio-Economic Planning Sciences*, 73, 100897.

13 Estermann, T., & Bennetot Pruvot, E. (2020). Financial sustainability of European universities: Diversification of funding sources. *Higher Education Policy*, 33(3), 443–462.



1-rasm. Oliy ta'lim tizimida davlat budjeti mablag'lari asosida investitsion risklarni baholash mexanizmi¹⁴

1-rasmda O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimida davlat budjeti mablag'lari asosida investitsiya risklarini baholash mexanizmi keltirilgan. Unda budjet mablag'laridan foydalanishning asosiy yo'nalishlari tizimli ravishda aks ettirilgan bo'lib, ular qatoriga oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish, grantlar, stipendiyalar, rag'batlantirish to'lovlari hamda qo'shimcha moliyaviy resurslar kiradi. Mazkur moliyaviy oqimlar asosida moliyalashtirish barqarorligi, resurslarning yetarilligi, ta'lim xizmatlariga bo'lgan talab dinamikasi hamda boshqaruv samaradorligi kabi asosiy investitsion risk omillari baholanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'lim tizimidagi ushbu ijobiy o'sish tendensiyalari investitsion jozibadorlikni oshirish uchun muhim iqtisodiy asos yaratadi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash, professor-o'qituvchilar malakasini oshirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish hamda moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish uchun qo'shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoj mavjud.

Shu bois oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha investitsiyalarni jalb qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Davlat budjetidan tashqari manbalar, jumladan xususiy investitsiyalar, xalqaro grantlar, ilmiy loyihalar hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish orqali moliyalashtirish imkoniyatlarini rivojlantirish oliy ta'lim muassasalarining investitsion jozibadorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim sohasi investitsion jozibadorligini oshirish ko'p jihatdan uning rivojlanish ko'rsatkichlariga bog'liqdir. Bunday ko'rsatkichlar investitsiyalar oqimi hajmini va oliy ta'lim muassasalarining qamrov darajasini kompleks baholashni talab etadi. Mazkur jihatlarni tadqiqot natijalari asosida quyidagi jadvalda ko'rish mumkin (1-jadval).

14 Maullif tomonidan tadqiqotlar asosida ishlab chiqilgan.



1-jadval. O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimining rivojlanish dinamikasi va nisbiy o'sish ko'rsatkichlari (%da, 2018-2025 yy.)¹⁵

Ko'rsatkichlar	2018/2019	2021/2022	2024/2025
1. Oliy ta'lim muassasalari, birlik	100%	157%	226%
Shu jumladan, xorijiy OTMLari (filiali), birlik	100%	250%	310%
Xususiy (nodavlat) OTMLar soni	100%	170%	7100%
Xususiy (nodavlat) OTMLari talabalar soni, ming kishi	100%	2884%	13846%
2. Talabalar umumiy soni, ming kishi	100%	224.4%	397.7%
Shundan quyidagilarda o'sish ko'rsatkichlari, 2018/2019 yilga nisbatan:			
- Kunduzgi	100%	177%	243%
- Kechki	100%	2208%	4167%
- Sirtqi	100%	497%	1352%
3. Oliy ta'lim qamrovining nisbiy o'sishi	100%	224%	398%

1-jadval ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimi 2018–2025-yillar davomida barqaror va jadal o'sish tendensiyalarini namoyon etmoqda. Xususan, oliy ta'lim muassasalari soni, ayniqsa, xususiy sektor va xalqaro filiallar hisobiga ortib, tizimning diversifikatsiyalashuviga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, talabalar umumiy sonining keskin oshishi oliy ta'limning ommaviylashuv jarayonini aks ettiradi. Bunda masofaviy va kechki ta'lim shakllarining kengayishi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Abituriyentlar va bitiruvchilar sonining ortishi esa inson kapitalini shakllantirish jarayonining faollashganidan dalolat beradi.

Alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasidagi davlat oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish manbalarini tahlil qilish natijalari mavjud moliyaviy resurslarni yanada samarali taqsimlash va ustuvor yo'nalishlarga yo'naltirish imkoniyatlari mavjudligini ko'rsatadi. Xususan, iqtidorli talabalarni qo'llab-quvvatlash, professor-o'qituvchilarning malakasini oshirish, ularni rag'batlantirish hamda rivojlantiruvchi dasturlarni kengaytirish yo'nalishlarida qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim muassasalariga qo'shimcha investitsiyalarni jalb etish ularning faoliyat samaradorligini oshirish, moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish va ta'lim sifatini yanada yaxshilashga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida qaraladi.

Natijada oliy ta'lim muassasalari iqtidorli talabalar uchun qo'shimcha stipendiya dasturlarini joriy etish, ular uchun maxsus o'quv kurslarini tashkil etish, shuningdek, yuqori salohiyatga ega professor-o'qituvchilarni moddiy rag'batlantirish mexanizmlarini kengaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarining investitsion jozibadorligini oshirishda davlat budjetidan tashqari manbalardan investitsiyalarni jalb etish ko'nikmalarini rivojlantirish muhim omil hisoblanadi. Bunday manbalardan samarali foydalanish oliy ta'lim muassasalarining qo'shimcha rivojlanish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimi so'nggi yillarda jadal rivojlanish bosqichini bosib o'tmoqda hamda uning investitsion jozibadorligi izchil ortib bormoqda. Xususan, oliy ta'lim muassasalari sonining ko'payishi, talabalar qamrovining kengayishi, shuningdek nodavlat va xorijiy oliy ta'lim muassasalari faoliyatining rivojlanishi ushbu sohada qulay investitsion muhit shakllanayotganidan dalolat beradi. Shu bilan birga, tahlillar oliy ta'lim muassasalarining moliyaviy faoliyatida mavjud resurslar operatsion va innovatsion rivojlanishda muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Biroq ilmiy tadqiqotlarni kengaytirish hamda professor-o'qituvchilarni rag'batlantirish yo'nalishlarida qo'shimcha moliyaviy resurslarga ehtiyoj mavjudligi kuzatiladi.

Shu nuqtai nazardan, qo'shimcha investitsiyalarni jalb etish, moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish hamda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, investitsion risklarni tizimli baholash va samarali boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish oliy ta'lim tizimining investitsion jozibadorligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari asosida oliy ta'lim tizimining investitsion jozibadorligini oshirish va investitsion risklarni kamaytirishga qaratilgan quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Birinchidan, oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Xususan, kapital qo'yilmalar, xususiy investitsiyalar, xalqaro grantlar, ilmiy-tadqiqot ishlari hamda

15 O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.



innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich rivojlantirish orqali moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash mumkin.

Ikkinchidan, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini rivojlantirish oliy ta'lim tizimiga qo'shimcha investitsiyalarni jalb etishning samarali vositasi hisoblanadi. Bu orqali ilmiy-tadqiqot laboratoriyalari, innovatsion markazlar va texnoparklarni tashkil etish ilmiy salohiyatni oshirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, oliy ta'lim muassasalarining institutsional va moliyaviy mustaqilligini kengaytirish, shuningdek, ularni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan investitsiyalarni jalb etish muhimdir. Bu boshqaruv samaradorligini oshirish va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

To'rtinchidan, oliy ta'lim tizimida investitsion risklarni baholash, monitoring qilish va boshqarishning tizimli mexanizmlarini joriy etish zarur. Xususan, risklarni aniqlash va tahlil qilish ko'rsatkichlarini ishlab chiqish hamda ularni amaliyotga tatbiq etish investitsiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali qo'shma ta'lim dasturlari va ilmiy loyihalarni amalga oshirish, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb etish oliy ta'lim muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mazkur takliflarni amalga oshirish oliy ta'lim tizimining investitsion jozibadorligini yanada oshirish, investitsion risklarni samarali boshqarish hamda uning barqaror va samarali rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Shavkat Mirziyoyev. IV Toshkent xalqaro investitsiya forumining yalpi majlisidagi nutqi // O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy chiqishi.
2. Becker G. S. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis with Special Reference to Education. – Chicago: University of Chicago Press, 1993.
3. Schultz T. W. Investment in human capital // American Economic Review. – 1961. – Vol. 51, No. 1. – pp. 1–17.
4. Altbach P. G., Reisberg L., Rumbley L. E. Trends in Global Higher Education: Tracking an Academic Revolution. – UNESCO, 2009.
5. Johnstone D. B. The economics and politics of cost sharing in higher education // Comparative Education Review. – 2004. – Vol. 48, No. 4. – pp. 403–418.
6. Barr N. Economics of the Welfare State. – Oxford: Oxford University Press, 2012.
7. Psacharopoulos G., Patrinos H. A. Returns to investment in education // Education Economics. – 2018. – Vol. 26, No. 5. – pp. 445–458.
8. Jongbloed B., Vossensteyn H. University funding and performance: A conceptual framework // Higher Education Policy. – 2021. – Vol. 34, No. 2. – pp. 321–340.
9. Hazelkorn E. University rankings and the reshaping of higher education // Higher Education. – 2020. – Vol. 79, No. 4. – pp. 643–659.
10. Salmi J. Higher education and the global knowledge economy // International Higher Education. – 2020. – No. 102. – pp. 2–4.
11. Marginson S. Global trends in higher education financing and participation // Higher Education. – 2022. – Vol. 84, No. 5. – pp. 923–940.
12. Agasisti T., Johnes G. Efficiency, costs, rankings and heterogeneity: The case of higher education // Socio-Economic Planning Sciences. – 2021. – Vol. 73. – 100897.
13. Estermann T., Bennetot Pruvot E. Financial sustainability of European universities: Diversification of funding sources // Higher Education Policy. – 2020. – Vol. 33, No. 3. – pp. 443–462.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
